

SIFATLI TA'LIM VA ILM FAN

Moyliyeva Charos Donyor qizi

Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumani

5-sonli texnikumi ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Abu Ali ibn Sino - "Shayx ur-ra'is", ya'ni "Olimlar boshlig'i", "Tabiblar podshohi" nomlariga sazovor bo'lgan olim. Uning tarjimai holidan quyidagi fikrga kòzim tushib qoldi va shartta buni òzimga eslatma qilib oldim. "Agar biror masaladan boshim qotib, qiyosda o'rtacha ta'rifni topa olmasam, jome' masjidiga borardim va namoz o'qib, Yaratguvchiga yolborardim, natijada qorong'u narsalar menga oydinlashar, mushkullar osonlashar edi."

Kalit so'zlar: Donishmandlik, sifatli ta'lim, bilimsizlik, tartib-intizomlilik, zeriktirmaslik, ta'limda intellektual soha, ġarb mutafakkirlari, uzviylik.

Ilmda xosiyat ko'p, chunki u , taraqqiyot kaliti, insonning qalb ko'zidir. Bunda ilm aqldan quvvat olganligi sababli, aql ma'naviy haqiqatlari bilan insoniyat jamiyatining dunyoviy ishlarida intizom yaratadi. Bu haqda ulug' matematik va faylasuf olim Pifagorning quyidagi fikrlari fikrimizning isbotidir. Ular:

“Donishmandlik nima?

Tartib-intizomlilik. Donishmand bo'lay desang hamma narsani joy-joyiga qo'y. O'tkinchi shuhratdan oqil kishining kundalik ishidagi tartib a'loroq".

Hozirgi kunda ham ilm-fanning turli sohalari, shuningdek, fan, adabiyot, san'at, falsafa va boshqa sohalarda ijod qilganlarning ismi shariflarini yo'qlash, qilgan ishlaridan foydalanish, insoniyatning og'irini yengil qilganliklari ularni eslab, yod qilib turilishi nihoyatda ahamiyatlidir. Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning ta'lim-tarbiya sohasida o'sha zamonlarda, hattoki hozirda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan fikrlari hozirgi kunda

nihojatda muhimdir. Ya'ni, u ta'lim berish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish lozim, deb ta'kidlaydi:

- ta'lim oluvchini zeriktirmaslik kerak;
- talabalarga bilim berishda bir xil narsa va ma'lumotlarni doimo bir xil usulda o'rgatavermaslik kerak;
- uzviylik va izchillik asosida mavzularni qiziqarli qilib o'rgatish yo'llarini kashf etib borish lozim;
- ta'lim berishda mashg'ulotlarni ko'rgazmali qilib borishga erishish kerak;
- talabalarning bilim olishida, ularning ilmlarni egallashiga, tushunib harakat qilishni, ya'ni ijodiy intilishiga va qiziqishiga e'tibor doimo ta'lim beruvchining diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

Abu Rayhon Beruniy ta'lim-tarbiya jarayonida muhitning ahamiyatiga alohida e'tibor bergan va u, "barcha illatlarning asosini bilimsizlik tashkil etadi", degan fikrda qat'iy turgan. Ta'lim - inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, individual psixik rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirishni ancha tezlashtiradi. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, bu jarayonda u ta'lim oluvchiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa bilim olishni yanada faollashtiradi, natijada ta'lim oluvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Ma'lumki, ta'limda asosiy rol ta'lim beruvchiga yuklatiladi va uzluksiz ravishda ta'lim oluvchiga bilim beriladi. Ta'lim oluvchilar faoliyati esa ta'lim beruvchidan chuqur va ongli ravishda bilim olishdan iboratdir. Bu borada G'arb mutaffakkirlaridan Gelvetsiy, Didro, R.Ouenlar tarbiyaning ustuvorligi g'oyasini ilgari surishdi. K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy ta'lim va tarbiyani uyg'unligi g'oyasini targ'ib qildilar. S.G.Shatskiy, L.V.Zankov, Suxomlinskiylar ta'limda amaliyotni tadbiiy, ongli o'zlashtirish ahamiyatiga ega ekanligini ishlab chiqishdi.

Ta'lim jarayoni - bu ta'lim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyat bo'lib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ta'lim jarayoni ta'lim oluvchilarning o'qish-o'qitish jarayonining mazmun-mohiyatini ongli ravishda anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi.

Ta'limda intellektual sohani rivojlantirish ta'lim oluvchining fikrlashini (bilishini, ijodini) xotirasini, diqqatini, aql sifatlarini (teranlik, tejamkorlik, mustaqillik), fikrlash ko'nikmalarini (ajratish, qo'shish, tahlil va h.k.), bilish, o'rganishni rivojlantirish, predmetga oid bilim, o'quv va ko'nikmalarni shakllantiradi.

Ta'limning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishda ta'lim beruvchi avvalo, ta'limni uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etishga, o'quv materiallarining mazmuni bilan bog'liq tarbiyaviy maqsadlarni aniq belgilashga va bilim olishga qiziqтира olishga bog'liqdir. Shu bilan birga, ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilar oldidagi obro'-e'tibori ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, globallashuv jarayonining tezlashishi dunyoda barcha sohalarda raqobat muhitini yanada kuchaytirmoqda. Zamonaviy dunyoda intellektual va ijtimoiy kapital davlatlar taraqqiyotida tobora muhim o'rin egallamoqda. Bunday sharoitda zamonaviy sifatli bilim berishga asoslangan ta'limgina mamlakatning raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Ushbu jarayonda nostandart, kreativ va tanqidiy fikrlash, yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislariga talab ortadi. Bu esa bevosita ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liq uzluksiz jarayondir.

O'qitish jarayonini ko'rgazmali tashkil qilish zarur. Ham eshitish, ham ko'rsatish orqali o'quv materiallarini idrok qilish, ularni ongli va puxta o'zlashtirish, bilimlarning turmushdagi zaruriyatini anglab yetishlariga asos soladi, diqqatni barqarorlashtiradi. Shuning uchun ko'rgazmali materiallar o'rganilayotgan mavzuning mazmuniga mos kelishi, ta'lim oluvchining yoshi va bilim darajasiga muvofiqlashgan bo'lishi hamda ulardan foydalanishning samarali yo'l va vositalar ishlab chiqilgan bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika, Toshkent: "Noshir", 2011.



2. <https://kknews.uz/oz/126463.html>